

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

5. Mamatqulov A. va boshq. O‘zbekistonning tabiiy resurslari va turizm salohiyati. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
6. Nature Protected Areas Uzbekistan — https://natureareas.uz/zaamin_mtb
7. Openscience.uz: Zomin milliy bog‘ida ekoturizmni tashkil etish — <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6211>
8. Travel & Tour World: Bakhmal District turizm daromadi — <https://www.travelandtourworld.com/news/article/bakhmal-district-in-jizzakh-region-of-uzbekistan-generates-six-million-us-dollar-in-tourism-revenue-in-this-year-with-sports-and-eco-tourism-growth/>

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL IQTISODIYOT VA IJTIMOY TADBIRKORLIKNING UYG‘UNLIGI

Mingboyeva Oydin Alisher qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası 1-bosqich magistranti,

E-mail: mingboyevaoydin04@gmail.com

Annotatsiya: Atrof-muhitning ifloslanishi, ijtimoiy muammolarning ortib borish fonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va jamiyatlardagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan va bugungi kunda ommalashib borayotgan sohalarni umumlashtirib turuvchi tushunchalar ijtimoiy soha tadbirkorligi va yashil iqtisodiyot tamoyilidir. Ijtimoiy tadbirkorlik- jamiyatlardagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan, yashil iqtisodiyot esa iqtisodiy muammolarni tabiatga zararsiz, eko-tizim bilan hal qilishni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Barqaror iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tadbirkorlik, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, globallashtiruv, ekologik muammo, bandlik.

Bugungi globallashtiruv davrida, mamlakatning iqtisodiy holatini yaxshilash uchun mavjud muammolarni tabiatga va jamiyatga zarar yetkazmagan holatda hal qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash bilan bir qatorda atrof-muhitni ham asrab-avaylash davlatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavjud muammolarni hal etish uchun hozirda ommalashib borayotgan yashil iqtisodiyot strategiyasi va ijtimoiy soha tadbirkorligiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, dunyo aholisi orasida tabaqalanishning ortishi, ishsizlik kabi muammolarga faqatgina barqaror iqtisodiy rivojlanish orqali barham berish mumkin. Yashil iqtisodiyot va ijtimoiy tadbirkorlikni umumlashtirib turuvchi holat ikkisinin ham barqaror rivojlanishga xizmat qilishidir, shu sababli ham ularning uyg‘unligi iqtisodiy rivojlanishda o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

XXI asr fan-texnologiyalarning yuqori sur‘atda rivojlanishi bilan, bir qatorda, jamiyatlardagi ijtimoiy va ekologik muammolarning ham shunga mos ravishda ortib borish asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab yashil iqtisodiyot va ijtimoiy tadbirkorlikning yaqqol namunasi bo‘lgan millionlab biznes

modellar o‘z faoliyatlarini boshlashgan va ularning asosiy maqsadi kelajak uchun toza havo va chiroyli tabiat qoldirish bilan birga, o‘zlarining moddiy ehtiyojlarini ham qondirishdir. **“Yashil” iqtisodiyot**- inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta‘minlaydigan, ayni paytda ekologik xavflarning oldini olishni va atrof muhitga zarar yetkazmaslikni kafolatlaydigan iqtisodiyot. Bu iqtisodiy model uglerod chiqindilarni kamaytirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish, barqaror qishloq xo‘jaligi, yashil texnologiyalar va ekologik toza sanoatga e‘tibor beradi. Ijtimoiy sohadagi tadbirkorlikda “yashil” texnologiyalardan foydalanish yashil iqtisodiyotning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, bunda ham tabiatni yuqori darajada ifloslanishining oldi olinadi, ham ma‘lum darajada bandlik ta‘minlanadi. **Ijtimoiy tadbirkorlik**- keng tushuncha bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan shu bilan birga iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lgan faoliyat turidir. Ushbu tadbirkorlikning asosiy maqsadi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarga innovatsion yondashuv orqali yechim topish hisoblanadi. Ijtimoiy tadbirkorlikka eng yorqin misollardan biri “TOMS” oyoq kiyim ishlab chiqaruvchi amerika tashkilotini olishimiz mumkinki, u har bir sotilgan oyoq kiyim uchun bir juft oyoq kiyimni dunyoning istalgan yeridagi qashshoq oila bolalari uchun ajratadi. Bu orqali har bir xaridor, ma‘lum ko‘rinishda o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘za oladi. Bunday holat o‘z o‘rnida reklama vazifasini ham bajaradi. **Barqaror iqtisodiy rivojlanish** esa yuqoridagi ikki tushunchani umumlashtirgan holati bo‘lib, iqtisodiyot o‘sishda davom etadi, ammo tabiiy resurslarni tugatmasdan, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratgan holda amalga oshiriladi. Ijtimoiy tadbirkorlik va yashil iqtisodiyotni uyg‘unlashtirish orqali quyida keltirilgan bir qancha foydalarga erishish mumkin:

- Ijtimoiy va ekologik muammolarni birgalikda hal qilish;
- Barqaror biznes model ishlab chiqish;
- Resurslardan samarali foydalanish;
- Jamiyatni barqaror rivojlantirish.

Hozirgi iqtisodiy va ekologik inqirozlarning yuzaga kelishi davrida mamlakatlar eco-biznes modellarni ishlab chiqishga va ularni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Ulardan biri “Plastic Bank”- qashshoqlikni tugatishni va plastik ifloslanishni oldini olishga yordam beruvchi ijtimoiy fintech bo‘lib, kanadalik tashabbuskorlar tomonidan ilgari surilgan. Yana biri esa RiverRecycle kompaniyasi bo‘lib, maqsadi daryodan chiqadigan plastik chiqindilarni okeanga yetib bormasdan to‘xtatish, past qiymatli plastik idishlardan qayta ishlangan taxtalar va PET to‘plamlari ishlab chiqarishdan iborat va o‘z faoliyatini Finlandiyada boshlagan. Qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, ma‘lum muddat uchun belgilangan strategiyalardan shuni bilish mumkinki, yurtimizdan ham yashil iqtisodiyotga e‘tibor ortib bormoqda. Yuqoridagi ikki misoldan farqli o‘laroq O‘zbekistondagi Tech4Impact ijtimoiy loyihasini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu lohiya asosiy e‘tiborni ayollar, bolalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga qaratadi. Yuqorida nomi keltirilgan loyihalar, tashkil etilgan korxonalarni bir-biriga bog‘lab turuvchi maqsad insonlarni ish bilan ta‘minlash uchun davr talabiga mos keluvchi innovatsion eko-loyihalarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etishdir.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot va ijtimoiy tadbirkorlikning uyg‘unligi:

- Tabiatni asrashni iqtisodiy foydaga aylantiradi;
- Aholi bandligini oshiradi;
- Barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Yana shuni ta’kidlash mumkinki, yashil iqtisodiyot va ijtimoiy tadbirkorlikning uyg‘unligi barqaror rivojlanishning eng samarali modeli. U iqtisodiyotni ekologik xavfsiz, ijtimoiy adolatli, va innovatsion yo‘nalishga o‘tkazadi. Rivojlanayotgan davlatlar jumladan O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish katta strategik ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohalarni yanada qo‘llab-quvvatlash, sohaga yoshlarni jalb qilish, moliyaviy rag‘batlar yaratish orqali barqarorlik va aholining farovonligini oshirish mumkin. Barqaror rivojlanishga erishish uchun ijtimoiy tadbirkorlik va yashil iqtisodiyotni uyg‘unlashtirish maksimal foydaga erishining asosiy usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brundtland Commission. Our Common Future. United Nations. 1987
2. UNEP. Towards a Green Economy: Pathway to sustainable Development. 2011
3. H.R.Turaboyeva, M.M.Kadirova. Yashil iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. “KAMOLOT” nashriyoti. Buxoro-2025
4. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev. Yashil iqtisodiyot. Darslik. Toshkent-2021
5. A.Bektemirov. Yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari. Maqola 2024
6. www.plasticbank.com
7. www.riverrecycle.com

AMERIKA LOGISTIKA TIZIMINI O‘ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH VA UNING SAMARADORLIK NATIJALARI

I.f.n., dots. Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti

Toshboyev Arslonbek Abdumalik o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali magistranti
arslonbektoshboev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlarining zamonaviy logistika tizimi, uning raqamlashtirilgan boshqaruv mexanizmlari, logistika xizmatlarida avtomatlashtirilgan yechimlar va mijozga yo‘naltirilgan yondashuv tahlil qilinadi. Mavjud O‘zbekiston logistika bozoridagi an’anaviy usullar bilan AQShdagi zamonaviy logistika modellarining farqlari solishtiriladi. Shuningdek,